



PARTICIPATION OF WOMEN AND GIRLS IN THE FIELD OF HISTORY IN UZBEKISTAN (as an example of Tashkent City State Higher Education Institution)

Maftuna Khayrullayeva

doctoral student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: maftunakhayrullayeva1996@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: History, achievements, research, women scientists, problems, tolerance, “Digital history”, “International harmony and tolerance”, manuscript.

Received: 16.11.24

Accepted: 18.11.24

Published: 20.11.24

Abstract: In this article, an attempt was made to shed light on the invaluable contribution of women scientists, who are engaged in scientific and pedagogical activities in the field of history, which is considered a field of social and humanitarian sciences, to the development of science in public higher education institutions in Tashkent. History is the great memory of mankind, and it embodies the spirituality, culture, and achievements of our ancestors. A comprehensive analysis of the research, innovation, and experience of historians engaged in such work will shed some light on their remarkable achievements. Studying the historical context, current situation, problems and future prospects, this article aims to recognize the important role of women in the development of the science of history in Uzbekistan.

O'ZBEKİSTONDA TARİX SOHASI RİVOJIDA XOTİN-QİZLAR ISHTIROKİ VA O'RNI (Toshkent shahar davlat OTM misolida)

Maftuna Xayrullayeva

tayanch doktorant

O'zbekiston Milliy universitet

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: maftunaxayrullayeva1996@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tarix fani, yutuqlar, tadqiqotlar, olima ayollar, muammolar, Toshkent shahridagi davlat olyi ta'lim

Annotatsiya: Mazkur maqolada

bag‘rikenglik, “Raqamli tarix”, “Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik”, qo‘lyozma.

muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi hisoblangan tarix sohasida ilmiy va pedagogik faoliyat olib borayotgan olma ayollarning ilm-fan rivojiga qo‘shayotgan beba ho hissasini yoritib berishga harakat qilindi. Tarix insoniyatning buyuk xotirasi hisoblanib, unda ajdodlarning ma’naviyati, madaniyati va amalga oshirgan ishlari mujassam. Mana shunday ish bilan shug‘ullanayotgan tarixchi olimalarning tadqiqotlari, innovatsiyalari va tajribalarini har tomonlama tahlil qilish orqali ularning ajoyib yutuqlariga qisman oydinlik kiritiladi. Tarixiy kontekst, hozirgi holat, muammolar va kelajak istiqbollarini o‘rganib, ushbu maqola O‘zbekistonda tarix fanini rivojlantirishda ayollarning muhim rolini e’tirof etishga qaratilgan.

УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН И ДЕВУШЕК В ОБЛАСТИ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА (на примере Ташкентского городского государственного высшего учебного заведения)

Мафтуна Хайруллаева

докторант

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: maftunakhayrullayeva1996@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: История, достижения, исследования, женщины-ученые, проблемы, толерантность, “Цифровая история”, “Международная гармония и толерантность”, рукопись.

Аннотация: В данной статье предпринята попытка осветить неоценимый вклад женщин-ученых, занимающихся научной и педагогической деятельностью в области истории, считающейся областью социальных и гуманитарных наук, в развитие науки в государственные высшие учебные заведения Ташкента. История – великая память человечества, она воплощает в себе духовность, культуру и достижения наших предков. Всесторонний анализ исследований, инноваций и опыта историков, занимающихся подобной работой, прольет некоторый свет на их выдающиеся достижения. Изучая исторический контекст, современную ситуацию, проблемы и перспективы, данная статья призвана признать важную роль женщин в развитии исторической науки в Узбекистане.

Kirish. Ma'lumki, yoshlar intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallash bilan birga milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligining zaruratinini chuqr anglab yetishlari zarur. Yoshlar ongida milliy va umumbashariy qadriyatlar, milliy ma'naviyat tushunchalarini shakllantirishda ijtimoiy fanlar muhim rol o'ynaydi. Uchinchi Renessans haqida gapirganda uning tub mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlarning yordamisiz yoshlar ongiga singdirib bo'lmaydi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar uchinchi Renessans boshlanishi va rivojlanishining "katalizatori" hisoblanadi. Aynan, ular millat va xalqni uyg'otishga qodir kuchdir.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimiga falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisod, madaniyatshunoslik, tarix, huquq fan sohalari kiradi. Jamiyat to'g'risida bilim beradigan fanlar falsafa va sotsiologiya hisoblansa, jamiyat sohalarini belgilovchi fanlar siyosatshunoslik, iqtisod, madaniyatshunoslik, tarix va huquq esa jamiyat tarkibini ifoda etuvchi fanlar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tahliliylik, ilmiylik, xolislik va tarixiy jarayonlarga aniq va faktlarga asoslangan holda yondashish tamoyillariga asoslangan holda ma'lumotlar berishga harakat qilindi. Mavzu, asosan, olima ayollar bilan bo'lgan og'zaki intervyu, olima ayollar faoliyatiga bag'ishlangan adabiyotlar orqali o'r ganildi va tarix sohasida olima ayollarning o'rniga oid fikr-mulohazalar bildirildi.

Tahlil va natijalar. Barchamizga sir emas tarix fani sohasini rivojlantirishning maqsadi milliy manfaatlarimizga mos, ilg'or xalqaro tajribani inobatga olgan holda, o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixini ilmiy o'r ganishning zamonaviy va samarali asoslarini ishlab chiqish, chuqr bilim va ko'nikmalarga ega, ijodiy va tizimli fikrlaydigan mutaxassislar, o'qituvchi va ilmiy xodimlarning yangi avlodini yetkazish, olingan ilmiy natijalarni ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarida ta'sirchan qo'llash, jamiyatda milliy o'zlikni anglash hissini mustahkamlashda xizmat qiladigan tarixiy tafakkurni tarbiyalashga qaratilgan bus-butun tizim yaratishdan iboratdir. Mana shu mas'uliyatli vazifalarni anglab yetgan tarixchilar qatorida tarixchi olimalarimizning ham o'rn beqiyos. Oliy ta'lim muassasalarida o'z ilmiy maktabiga ega, shuningdek pedagogik, ilmiy-tadqiqot ishini olib borayotgan ba'zi olima professor-o'qituvchilarimiz faoliyatiga nazar tashlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston tarixida ilk bor tarixchi ayollar orasida akademik unvoniga sazovor bo'lgan tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademik) Dilorom Yusupova 1996-yil Kioto xalqaro tadqiqotlar universiteti (Kioto university of foreign studies, Yaponiya) faxriy professori, 2011-yil "Mehnat shuhrati" ordeni, 2021-yil I darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni, 2023-yil "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni, 2024-yil "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 80 yilligi" ko'krak nishoni hamda bir qator faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Dilorom Yusupova 1963-yil O'rta Osiyo davlat universiteti (1960-yildan Toshkent davlat universiteti, hozirgi

O‘zbekiston Milliy universitetining Sharq fakultetini bitirib, o‘z mehnat faoliyatini O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining “Sharq qo‘lyozmalarini ilmiy tavsiflash va kataloglashtirish” bo‘limida laborant lavozimida boshladi. 2001-yil tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqladi. 2001-yildan shu kunga qadar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining yetakchi ilmiy xodimi lavozimida ishlab kelmoqda. Shu vaqt mobaynida, ya’ni 2003–2007-yillarda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining “Markaziy Osiyo va Sharq” granti hamda 2009–2013-yillarda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan qo‘lyozma asarlarning elektron katalogini tuzish bo‘yicha “Gerdi Xankel” (Germaniya) fondining granti ishtirokchisi. Bu grantda u tomonidan 1100 ta Sharq qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi berilgan. Bir vaqtning o‘zida (2009–2014) “O‘zbekiston Fanlar akademiyasi dublet fondidagi qo‘lyozmalar katalogini tuzish” granti ishtirokchisi. Bu grantda u tomonidan 500 ta Sharq qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi berilgan. 2014–2017-yillarda “Litografik nashrlar katalogini tuzish” bo‘yicha grant rahbari va Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalar markazining “Filologik mazmundagi qo‘lyozmalar katalogini tuzish” granti ishtirokchisi hisoblanadi. Keyinchalik, uning konkret ilmiy yo‘nalishi Amir Temur va Temuriylar davriga oid manbalarni muomalaga kiritishdan iborat bo‘ldi. Jumladan, Hirot tarixchisi Fasih Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” asarining oxirgi qismini (1301–1442) rus tiliga (Toshkent – 1980) va o‘zbek tiliga (Toshkent – 2018) tarjima qildi. Ushbu asarning nashr etilishi nafaqat O‘zbekiston, balki Rossiya va Yevropadagi Temuriylar tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimlar uchun katta rezonans bo‘ldi. Albatta, bu narsa Dilorom Yusupovani yanada rag‘batlantirdi.

D. Yusupovaning ilmiy faoliyatida ikkinchi yo‘nalish – Sharq qo‘lyozmalarini ilmiy tavsiflash va kataloglashtirish. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu kataloglar nashrga tayyorlash jarayonida D. Yusupova qo‘lyozmalar va litografik nashrlarga tavsif berish borasidagi o‘z tajribasini ushbu ishga endigina kirishgan yoshlarga mohirona o‘rgatdi. Natijada, ularning ba’zilari bemalol bu ishni bajara ololadi. Dilorom Yusupova nafaqat Respublikamizda malakali mutaxassis, balki xorijiy mamlakatlarda ham yaxshi tanilgan yetuk olimadir. U o‘zining ilmiy ishini va jamoatashkiliy ishlarini, Respublikamizga yuqori malakali kadrlar – fan doktorlarini tayyorlash borasida tinimsiz mehnat qilmoqda[1].

Tarix fanlari doktori, professor, “Shuhrat” medali sohibasi, “Oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishoni sohibasi, O‘zMU tarix fakulteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi professori Murtazayeva Rahbarxon Hamidovna 1976 yildan o‘z mehnat faoliyatini o‘zi tahsil olgan ToshDU (hozirgi O‘zMU) da boshlab, to hozirgi kunga qadar ilmiy-pedagogik faoliyatini ushbu dargoh bilan chambarchas bog‘ladi. Professor Murtazayeva Rahbarxon Hamidovna 1995-2004-yillar

mobaynida O‘zbekiston Milliy universiteti ma’naviy-ma’rifiy va gumanitar ta’lim ishlari bo‘yicha birinchi prorektori lavozimida faoliyat ko‘rsatib, respublika ta’lim tizimi sohasiga munosib o‘z hissasini qo‘shdi. Shu davrda universitet ta’lim va o‘qitish tizimida ro‘y bergen ko‘plab ijobjiy o‘zgarish va yangilanishlarda olimaning hissasi katta bo‘ldi. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar, kam sonli millatlar va bag‘rikenglik, tarixiy-demografik jarayonlar, ta’lim tizimi masalalari olimaning asosiy ilmiy yo‘nalishi hisoblanadi. Uning tashabbusi bilan 2006 yili respublikada ilk bora O‘zMU da “Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik” ilmiy markazi ochildi. Professor Rahbarxon Murtazayeva “Millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik tarixi” ilmiy maktabining asoschisi hisoblanib, bu sohada ko‘plab salmoqli ishlar amalga oshirdi. Professor Rahbarxon Hamidovna mustaqillik davrida respublikada birinchilardan “O‘zbekiston tarixi” fanini oliy ta’lim o‘quv dasturiga kiritish tarafdoi bo‘lib, uning rahbarligida ilk bor milliy istiqlol ruhi aks etgan, avval O‘zbekiston tarixidan ma’ruzalar matni, so‘ngra o‘quv qo‘llanma va darsliklar nashr etildi. Olima rahbarligi ostida 2003 yili 45 bosma taboqdan iborat “O‘zbekiston tarixi” darsligi nashr etildi. Ushbu darslik 2005 yili lotin alifbosida ham chop etildi. 2002 yili rus tilida chop etilgan. “История Узбекистана” o‘quv qo‘llanmasi bir necha bor qayta nashrdan chiqib, 2011 yili shu nomdagi 22 bosma taboqdan iborat oliy o‘quv yurtlari uchun darslik chop etildi. Milliy universitet tarixi mavzusi Rahbarxon Murtazayeva rahbarlik qilayotgan kafedra jamoasi ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Rahbarxon Murtazayeva 2009 yildan O‘zbekiston xotin-qizlar “Olima” uyushmasi raisi lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Keyingi yillarda “Olima” uyushmasi xotin-qizlar ilmiy salohiyatini yuksaltirish, iqtidorli yosh qizlarni ilmga yo‘naltirish borasida qator salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, respublika miqyosida o‘tkazib kelinayotgan “Ilm yulduzları” ko‘rik-tanlovi yosh ayol-qizlar o‘rtasida ilmiy salohiyatni ko‘tarish ishiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Shuningdek, olima “Zulfiya” mukofotini taqdim etish bo‘yicha Davlat komissiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitasi rayosatining a’zosi hamdir [2].

O‘zbekiston Milliy Universitetining O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari doktori Ishanxodjayeva Zamira Rayimovna o‘z ilmiy izlanishlarni tariximizning dolzarb va kam o‘rganilgan masalalariga bag‘ishlangan mavzular doirasida olib bormoqda va Respublikamizning intellektual salohiyatini oshirishga o‘z munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. Z.R. Ishanxodjayeva 2000 yildan buyon doimiy ravishda fan nomzodi, falsafa doktori, fan doktori Ilmiy darajasini beruvchi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2022 yildan boshlab Toshkent Sharqshunoslik universiteti qoshidagi Ixtisoslashgan Ilmiy Kengashlar a’zosi sifatida ilmiy tadqiqotlarga baho berib kelmoqda. Jumladan, raqamli ilmiy kengash a’zosi sifatida tarix sohasidagi ilmiy ishlarning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, yaratilgan ilmiy ishlarni dolzarbligini baholashda faol ishtirok etib kelmoqda.

Z.R. Ishanxodjayeva 2021-2022 yillarda UO'T: 94(575.1), ITIni ro'yxatga olish № A, Inv № A-OT-2021-542 sonli "Qatag'on qurbanlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarining ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan elektron platforma va multimediali kompleksini yaratish" mavzusida 400 mln so'mni tashkil qilgan ilmiy-amaliy loyiha yutishga sazovor bo'lgan. Grantning ilmiy rahbari sifatida ilmiy jamoa bilan hamkorlikda faoliyat yuritgan va natijada "Raqamli tarix" elektron platforma, Multimedia komplekslar va Toshkent shahri hududida qatag'onga uchragan vatandoshlarimizning "Xotira kitobini" Mobil ilovasini yaratilib foydalanuvchilarda qiziqish uyg'otgan va faol hozirgi kunda Internet foydalanuvchilar tomonidan qo'llanilmoqda [3].

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq qilishda tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy universitetining Tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kaferdasi professori Kobzeva Olga Petrovna tomonidan O'zbekiston tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlangan hamda Vatanimizning boy tarixiy merosi va ma'naviy qadriyatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan 6 ta yangi fan o'quv jarayoniga kiritildi. Taniqli professor, antropolog olim Telman Kasimovich Xodjayov O.P.Kobzevaning birinchi ilmiy rahbari hisoblanadi. 2010 yili jahon miqyosida taniqli olim, akademik E.V. Rtveladze ilmiy rahbarligida "Великий Шелковый путь: анализ проблем изучения и перспектив возрождения" nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ilmiy rahbari akademik E.V.Rtveladze ilmiy maktabi an'analarini davom ettirib, Kobzeva Olga Petrovna chet ellarda, xususan, M.V.Lomonosov nomidagi MDU qoshidagi Osiyo va Afrika mamlakatlari institutida, Shanxay Davlat universitetida, Hindiston Inson resurslari institutida Buyuk Ipak yo'li va O'zbekiston Respublikasi tarixiy-madaniy merosini ommalashtirishda o'z ma'ruzalari bilan kongresslarda faol ishtirok etib kelmoqda. Olima tomonidan ishlab chiqilgan "Islom madaniyat tarixi", "O'rta Osiyoda tasavvuf tariqatlari tarixi" kurslari o'zida islom madaniyatining noyob sifatlarini aks ettirgan bo'lib, aniq misollarda islom dinidagi bag'rikenglik, vatanga muhabbat tuyg'ularini talabalarga shakllantirishda, diniy ekstremizm va aqidaparastlik xavfiga qarshi turishda katta ahamiyatga ega. 2014 yilda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti professorlari bilan birgalikda professor Kobzeva Olga Petrovna "Евразийство:истоки, концепция, реальность" nomli muhim monografiyani chop ettirgan. Shuningdek, mualliflar bilan hamkorlikda "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv-uslubiy qo'llanmasini oliv texnik o'quv yurtlari uchun tayyorlab, nashr ettirgan. Ilmiy yutuqlari uchun Olga Kobzeva qator, xususan, birgina 2014 yilda Qarachevo-Bolqor gumanitar tadqiqotlar markazi, Krasnoyarsk o'lka ilmiy-o'quv markazining madaniyat kadrlari bo'yicha xalqaro diplomlari bilan taqdirlangan. 2015 yilda Sank-Peterburgda "Bigiyev o'qishlari" II xalqaro islom anjumanida ishtirok etdi. 2022 yildan to hozirgi kunga - O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti professori hisoblanadi. Olima

“Pedagogik loyiha” dasturi (2008 y.) va “Eng mohir pedagog” tanlovi (2017 y.)da g‘oliblikni qo‘lga kiritgan [4].

Diloram Babajanovna Babajanova 2006 -yilda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15 yil”, 2016 yilda “O‘zbekiston mustaqilligiga 25 yil” esdalik nishonlari va 2012 yilda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni, 2022-yili “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari doktori hisoblanib, 2012 yildan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori lavozimida ishlab kelmoqda. Uning 250 dan ortiq ilmiy ishlari, jumladan, 4 ta monografiya, 10 dan ortiq darslik, risola va o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan [5].

Shuningdek, xalqaro va millataro munosabatlarni shakllantirishda bir qancha mamlakat vakolatxonalarida (Eron, Hindiston, Turkiya, Turkmaniston) do‘stona hamda bag‘rikenglik aloqalarini o‘rnatishda faol qatnashib kelmoqda. Muntazam ravishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasida tashkil etiladigan tadbirlarda o‘zining millatlararo munosabatlar, demografik jarayonlar, yaxshi qo‘sningchilik munosabatlari, diniy bag‘rikenglik kabi mavzulardagi ma’ruzalar bilan faol ishtirok etib keladi. Hozirda ko‘plab teleko‘rsatuvlarda (“O‘zbekiston”, “Madaniyat va ma’rifat”, “Mahalla”, “Sevimli”, “Zo‘r”, “Yoshlar”, “Milliy”, “O‘zbekiston-24”) mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoy-siyosiy o‘rni, iqtisodiy erkinligi, gender tengligi, korrupsiyaga qarshi kurashish, jamiyatdagi faol siyosiy o‘zgarishlar, beshta tashabbus va iqtisodiy strategiya, inson, bolalar hamda ayollar huquqlari va ularni himoya qilish kabi masalalar bilan bog‘liq inter faol, yangi texnologik uslublarga tayangan holda ilmiy-amaliy, ko‘p yillik xalqaro tajribaga asoslangan dolzarb mavzularda faol ishtirok etib kelmoqda. “Munosabat” ko‘rsatuvining doimiy eksperti sifatida faoliyat olib bormoqda. D.Babajanova Italiya, Gretsya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Qirg‘iziston, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr va Malayziya kabi dunyoning 10 dan ortiq davlatlarida tarixchi, siyosatshunoslik, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, ayollar va inson huquqlari, gender tengligi, millatlararo munosabatlar, turkiy xalqlar birdamligi, tarixiy siymolar xotirasini tiklash, dunyo ishbilarmon ayollarining faoliyati va tajribasini o‘rganish hamda tadbiq etish kabi yo‘nalishlarda malaka oshirib, xalqaro simpozium va ilmiy anjumanlarda ishtirok etib, sertifikatlarga ega bo‘lgan. D.Babajanova o‘z professional hayot tajribasi va to‘plagan xalqaro bilimlaridan foydalangan holda O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar, diniy bag‘rikenglik, demokratik yangilanishlar, saylov qonunchiligi masalalarini keng targ‘ib qilib kelmoqda. Professor Diloram Babajanova ko‘p yillar davomida xalqimizning milliy-madaniy tarixiy merosi, zamонавиy sivilizatsiya rivojlanishining xalqaro, milliy, madaniy, tarixiy, sivilizatsion, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy gumanitar, ma’naviy, lisoniy, falsafiy muammolari

borasidagi ilmiy faoliyatining ko‘pgina qirralari bilan o‘z hissasini qo‘shib kelyapti. D.Babajanova o‘zining mehnatsevarligi, tashkilotchiligi, samimiyligi, kamtarinligi va yetuk ilmiy salohiyati tufayli respublika ilmiy jamoatchiligi o‘rtasida katta obro‘ qozongan. Ish faoliyatini tartibga soluvchi qonun va boshqa me’yoriy hujjatlar talablarini biladi hamda ular bilan ishslashda yuqori saviyaga ega, rahbariyat tomonidan berilgan vazifa va topshiriqlarga nisbatan mas’uliyat bilan yondashadi, ishni sifatli va belgilangan muddatda ijro etadi.

Xulosa. XXI globallashuv asrida ilmli insonlar har bir davlatning intellektual mulki, resursi hisoblanadi. Ilmli ayol – millat tarbiyachisi, olma ayol esa, millatning eng yaxshi fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan, ilm-fanda, oilada, hayotda, jamiyatda yetakchi, peshqadam inson.

Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari dadil qadam tashlayotgan Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi va rahnamoligida XXI asr ilm-fani taraqqiyoti uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda shubhasiz olma ayollar istiqboliga alohida ahamiyat berilyotganligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi 1-tomi, Toshkent: 2024. Science and Innovation. 435-440 b.
2. O‘zbekiston tarixchi olma ayollari (Bibliografik ma’lumotnoma) II Jild, Toshkent:2024. 10-13 betlar.
3. O‘zbekiston tarixchi olma ayollari (Bibliografik ma’lumotnoma) II Jild, Toshkent:2024. 55-59 betlar.
4. O‘zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi 1-tomi, Toshkent: 2024. Science and Innovation. 62-66 b.
5. Пойтахт олима аёллари. Тошкент:2016. “Turon zamin ziyo”. 41 b.